

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
IQTISODIYOT IXTISOSLIGIDAN ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.I.01.11. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

**SHAMSUDDINOV BAXODIR RAXIMOVICH**

**O'ZBEKISTONDA HAYOT SUG'URTASINING USLUBIY  
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**

**Fan doctori (DSc) dissertatsiyasi mundarijasi**  
**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**  
**Content of the Doctoral (DSc) dissertation abstract**

**Shamsuddinov Baxodir Raximovich**

О'zbekistonda hayot sug'urtasining uslubiy asoslarini takomillashtirish .....3

**Шамсуддинов Баходир Рахимович**

Совершенствование методологических основ страхования жизни  
в Узбекистане.....

**Shamsuddinov Bakhodir Rakhimovich**

Improving Life Insurance methodological basics in Uzbekistan.....

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati.....**

Список опубликованных работ.....

List of published works.....

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
IQTISODIYOT IXTISOSLIGIDAN ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.I.01.11. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

**SHAMSUDDINOV BAXODIR RAXIMOVICH**

**O'ZBEKISTONDA HAYOT SUG'URTASINING USLUBIY  
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан по номером B2023.4.DSc/Iqt598.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб- странице научного совета ([www.niu.uz](http://www.niu.uz)) информационно-образовательным портале ([www.ziyouet.uz](http://www.ziyouet.uz)).

Научный консультант:

**Азимов Рустан Содақович**  
доктор экономических наук, профессор

Расмий оponentлар:

**Тухтаев Нуридлом**  
академик, доктор экономических наук,  
профессор

**Кудринев Андрей Алексеевич**  
доктор экономических наук, профессор

**Ишонов Тоҳир Каримович**  
доктор экономических наук, профессор

Ўтақчи таққилот:

Ташкентский государственный  
экономический университет

Защита диссертации состоится 28 декабря 2024 года в 10.00 часов на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней DSc.03/30.12.2019.1.01.11 при Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека по адресу: 100000, г. Ташкент, ул. Университетская, д.4, Тел.: (99871) 246-02-24, факс: (99871) 246-02-24, e-mail: [devonxona@niu.uz](mailto:devonxona@niu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека (зарегистрировано под номером №178). Адрес: 100000, г. Ташкент, ул. Университетская, д.4, Тел.: (99871) 246-02-24, факс: (99871) 246-02-24, e-mail: [kutubxona@niu.uz](mailto:kutubxona@niu.uz).

Автореферат диссертации разослан 17 декабря 2024 года.  
(Протокол реестра №43 от 17 декабря 2024 года).

  
**Х.П. Абулкасимов**  
Председатель Научного Совета по  
присуждению ученых степеней,  
доктор экономических наук,  
профессор

**К.К. Мамбегжанов**  
Заместитель Секретари Научного Совета по  
присуждению ученых степеней,  
доктор экономических наук,  
профессор

**А.В. Вахабов**  
Председатель Научного семинара при  
Научном Совете по присуждению  
ученых степеней, доктор  
экономических наук, профессор

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertasiyasi annotasiyasi)

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda aholi qarishi, yuqori texnologik yutuqlar va iqlim o'zgarishi natijasida yangi kasalliklarning paydo bo'lishi va o'lim koeffitsiyentlarining ortishi xavfi mavjudligi sharoitlarida hayot sug'urtasi ko'pgina muammolarga duch kelmoqda. Xalqaro sug'urta nazoratchilari uyushmasi (IAIS) ma'lumotlariga ko'ra "...2024 yilda global sug'urta mukofotlari hozirgi geosiyosiy beqarorlik ta'sirida kuchli o'sish tendensiyasiga ega bo'ladi. Sug'urta mukofotlari 2024 yilda kutilayotgan 3,3 % foizdan oshib, jami 8,1 trillion dollarni tashkil etadi. 2025 yilda sug'urta mukofotlari 3,9 foizga oshishi prognoz qilinmoqda. 2024 yilda asosiy bozorlarda sug'urta mukofotlarining yuqori o'sishi Xitoyda 6,3 foiz, AQShda 1,7 foiz, G'arbiy Evropa mamlakatlarida 2,8 foiz va rivojlanayotgan mamlakatlarda 5,6 foiz darajasida prognoz qilinmoqda"<sup>1</sup>. Ammo, shunday bo'lishiga qaramasdan, eskirgan sug'urta texnologiyalari qoniqarli natijalar olinishiga xalaqit bermoqda. Bu esa, o'z navbatida, hozirgi kundagi keskin iqtisodiy va geosiyosiy o'zgarishlar sharoitida jahon sug'urta bozorida hayot sug'urtasini rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Jahonda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda sug'urta xizmatlari orasida hayot sug'urtasini rivojlantirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish masalalari global muammo sifatida o'rganilmoqda. Jumladan, jahonda ro'y berayotgan demografik, iqlimiy, iqtisodiy va geosiyosiy o'zgarishlar sharoitida hayot sug'urtasining uslubiy asoslarini tubdan qayta ko'rib chiqish, sug'urtalanayotgan risklar tabiatini ilmiy tadqiq etish, global hayot sug'urtasi sohasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan barcha omillar va ularning darajasini ekonometrik modellashtirish, sug'urta bozorida aktuar hisob-kitoblarni samarali qo'llash masalalari sohada olib boriladigan tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda so'nggi besh yillikda sug'urta bozorida ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lamini sezilarli darajada rivojlantirdi. Sohada o'zgarishlar, oldinga siljishlar kuzatilyapti. O'zbekiston sug'urta bozori aniq mexanizmlarga asoslangan izchil siyosat natijasida rivojlanmoqda. "Respublikada so'nggi besh yilda sug'urta mukofotlari hajmi deyarli 6 barobar o'sgan, bu ko'rsatkich boshqa moliyaviy sohalar rivojlanish ko'rsatkichidan ancha yuqori. Ammo, shunday bo'lishiga qaramasdan, respublikada sug'urta xizmatlarining YaIMdagi ulushi 0,8 foizdan oshmayapti"<sup>2</sup>. Bu ko'rsatkich rivojlangan davlatlardagi ko'rsatkichga nisbatan ancha kam. Shuning uchun ham mamlakatni rivojlantirishning strategik vazifalarida "Aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sug'urta tizimini takomillashtirish"<sup>3</sup> masalalari ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berilgan. Bu esa, o'z navbatida mamlakatimizda sug'urta bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarga ustuvorlik qaratilishini taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son

<sup>1</sup> <https://www.capgemini.com/industries/insurance/life-annuities-benefits>.

<sup>2</sup> <https://yuz.uz/news/ozbekiston-sugurta-bozori-qanday-rivojlanmoqda>.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158 сон "Ўзбекистон — 2030" стратегияси тўғрисида" ги Фармони. <https://lex.uz/docs/6600413>

“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2024-yil 1-martidagi PQ-108-son “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023 yil 9-fevraldagi PQ-291-son “Kapital bozorini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 23-oktabrdagi PQ-5265-son “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020 yil 14-fevral PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019 yil 2 avgustidagi PQ-4412-son “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda sug‘urta sohasini rivojlantirishga qaratilgan boshqa huquqiy va me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi.** Dissertasiya ishi respublikada fan va texnikani rivojlantirishning I.“Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirildi.

**Dissertasiya mavzusi bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi**<sup>4</sup>. O‘zgaruvchan moliyaviy, demografik, siyosiy va tabiiy-iqlim xatarlari sharoitida hayotni sug‘urtalash muammolari bo‘yicha ilmiy izlanishlar jahonning etakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, Xalqaro sug‘urta nazoratchilari uyushmasi, Xalqaro aktuarlar uyushmasi (IAA), AQSh aktuarlar jamiyati, Harvard universiteti, Macquarie universiteti (Avstraliya), Massachusetts texnologiya instituti, Stanford universiteti (AQSh), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) (Fransiya), Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO), Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (APEC), Montpellier Biznes maktabi (Fransiya), Manchester universiteti, Oxford universiteti (Buyuk Britaniya), Buenos Aires universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi moliya universiteti (Rossiya), M.V.Lomonosov

<sup>4</sup> Insurance Core Principles and Common Framework for the Supervision of Internationally Active Insurance Groups. <https://www.iaisweb.org/uploads/2022/01/191115-IAIS-ICPs-and-ComFrame-adopted-in-November-2019.pdf>; IAA Risk Book Actuarial Function. [https://www.actuaries.org/~IAA\\_Risk\\_Book\\_Actuarial\\_Function\\_2023-03.pdf](https://www.actuaries.org/~IAA_Risk_Book_Actuarial_Function_2023-03.pdf); Navigating Global Life and Health Insurance Demand Trends. <https://www.soa.org/resources/research-reports/2024/navigating-global-insurance-demands>; R Programming for Actuarial Science. <https://www.harvard.com/book/9781119754978>; Life Insurance in the Information Age. <https://www.chicagobooth.edu/review/life-insurance-information-age>; Economic, Demographic, and Institutional Determinants of Life Insurance Consumption across Countries. <https://documents1.worldbank.org/~773990JRN020030ts0of0Life0Insurance.pdf>; Life, Disability, and Workers' Compensation Insurance. <https://hr.mit.edu/benefits/life>; Basic & Supplemental Life Insurance. <https://cardinalatwork.stanford.edu/~basic-supplemental-life-insurance>; OECD Insurance Statistics. [https://www.oecd-ilibrary.org/finance-and-investment/data/oecd-insurance-statistics\\_ins-data-en](https://www.oecd-ilibrary.org/finance-and-investment/data/oecd-insurance-statistics_ins-data-en); Catastrophe insurance programs for public assets - operational framework. <https://www.preventionweb.net/publication/catastrophe-insurance-programs-public-assets-operational-framework>; An insurance paradigm for improving power system resilience via distributed investment. <https://ora.ox.ac.uk/objects/uuid:9f5184fc-247c-4fab-ae19-8c0275337a74>; Рынок труда и система обязательного пенсионного страхования: современные тренды и долгосрочные риски. <https://www.iep.ru/ru/monitoring/rynok-truda-i-sistema-obyazatel'nogo-pensionnogo-strakhovaniya-sovremennye-trendy-i-dolgosrochnye-riski.html>; Устойчивое развитие и эволюция страхования в цифровой экономике. <https://www.econ.msu.ru/departments/risks/science/>

nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya), Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Sug'urtaning, shu jumladan, hayot sug'urtasining dolzarb muammolari va ularni samarali hal qilish bo'yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlarda qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: sug'urtalovchilar uchun tizimli risklarni aniqlash, baholash va kamaytirish (IAA,IAIS), sug'urta sektorini tartibga solish va nazorat qilish uchun umumiy qabul qilingan tamoyillar, standartlar va yo'riqnomalarni tashkil etish (IAIS), iqlim o'zgarishining hayot sug'urtasi sohasiga ta'siri (IFoa), uzoq muddatli hayot va sog'lik sug'urtasi uchun asosiy risklar bahosi (Macquarie universiteti), hayotni sug'urtalash kompaniyalari duchor bo'ladigan bozor, operatsion va demografik xavflarning chastotasi va jiddiyligiga tabiiy risklarning ta'sirini aniqlash (Oxford University, Buyuk Britaniya); hayot sug'urtasi operatsiyalari bo'yicha demografik va moliyaviy risklarni baholash (M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya)).

Dunyoning etakchi oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, shuningdek, nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan hayot sug'urtasini rivojlantirish strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda: iqlim o'zgarishining sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligiga ta'siri; globallashtirish sharoitida hayot sug'urtasini rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish; hayot sug'urtasi biznes jarayonlarini raqamlashtirish istiqbollari va risklari; aholi qarishi va uning hayot sug'urtasi moliyaviy barqarorligiga ta'siri; rivojlanayotgan mamlakatlarning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish muammolari va unda sug'urta bozori o'rnini va roli.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Hayotni sug'urtalash sohasi muammolari g'arb olimlari Bowers N.L., Bullman X., Gerber X.U., Daykin Ch., Panjer X. Pollard J.H., Benjamin B. Xaberman S. Cummins J.D., Trowbridge Ch.L., Wilkie A.D. va boshqa bir qator olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan.<sup>5</sup>

Qo'shni mamlakatlar olimlari, xususan, Baskakov V.N., Kagalovskaya E.T., Kotlovskiy I.B., Kudryavsev A.A., Lelchuk A.A., Malinovskiy V.K., Nasyrova G/A., Novikov V.V., Kirillova N.V., Ryjkov O.Yu., Solovyov A.K., Nurbina K.E., Falin G.I., Xmaladze E.V., Chernova G.V., Sigantov A.A., Sholomiskiy A.G., Yuldashev R.T. va boshqalarning ishlari sug'urta sohasini rivojlantirishga bag'ishlangan.<sup>6</sup>

---

<sup>5</sup> Bowers N.L., Gerber H.U. et al. Actuarial mathematics. 2<sup>nd</sup> Edition. <https://www.amazon.com/Actuarial-Mathematics-Newton-L-Bowers/dp/0938959468>; Bullman H. et al. Mathematical Methods in Risk Theory. <https://link.springer.com/book/10.1007/978-3-540-30711-2>; Daykin Ch.D. et al. Practical Risk Theory for Actuaries. Chapman and Hall/CRC.2014. P.576; Panjer H. et al. Insurance Risk Models. SOA publications.; & J.H. Pollard J.H., Benjamin B. The Analysis of Mortality and other Actuarial Statistics, second edition, William Heinemann Ltd, London, 1980.; Haberman S. et al. Modern actuarial theory and practice. Chapman and Hall/CRC.2020; Cummins J.D. et al. Risk Classification in Life Insurance.1982nd Edition; Trowbridge Ch.L. Fundamental Concepts of Actuarial Science. <https://www.actuariayfinanzas.net/~Conceptos-fundamentales-de-la-Ciencia-Actuarial.pdf>; Wilkie, A.D. (1995). "More on a stochastic asset model for actuarial use". British Actuarial Journal. 1 (5): 777-964

<sup>6</sup> Баскаков В.Н. и др. "Оценка страховых рисков при страховании пенсии по инвалидности" // Пенсионные фонды и инвестиции, №1(19), 2005, Кагаловская Э.Т. Теоретические и методологические основы личного страхования. автореферат диссертации на соискание степени доктора экономических наук.08.00.10. Москва, 2007; Котловский, И.Б. и др. Рисковый подход в оценке платежеспособности страховой компании. Финансы. – 2007. – №6. С. 15-19., Чернова Г.В., Кудрявцев А.А., Управление рисками. Учебное пособие. Изд. «Проспект». 2009, Лельчук А.Л. Актуарный риск-менеджмент. – М.: Анкил, 20014. – 424 с.; Кириллова, Н. В.

O‘zbekistonlik olimlar va mutaxassislar qatorida Azimov R.S., Abdurahmanov I.X., Imomov Sh.B., Iminov T.K., Mirsodiqov M.A., Qo‘ldoshev K.M., Umarov S.A., Shennaev X.M. va boshqalarning ishlarida risklarni sug‘urtalash uslubiyotini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan.<sup>7</sup> Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlarning ishlarida hayotni sug‘urtalash sohasi muammolaridan ko‘ra umumiy sug‘urta sohasi muammolari batafsil o‘rganilgan. Hayot sug‘urtasida narxlarni belgilash, zaxiralarni shakllantirish va kapitalning etarligi muammolariga kam e’tibor qaratildi. Hayot sug‘urtasining demografik asoslari yaxshi yoritilmagan. Bu muammolarning muvaffaqiyatli hal etilishi sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini belgilaydi.

Dissertasiya mavzusi bo‘yicha monografiyalar, ma’ruzalar, maqolalar ko‘rinishida ilmiy tadqiqot ishlarining ma’lum nazariy va amaliy tajribasi mavjud bo‘lishiga qaramasdan, xalqaro standartlar va tamoyillarni joriy etish muammolari bo‘yicha etarli ma’lumotlar yo‘qligini ta’kidlash lozim.

**Tadqiqot maqsadi** O‘zbekiston Respublikasida hayot sug‘urtasining uslubiy asoslarini takomillashtirish va sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

hayot sug‘urtasi tashkilotlarida biznes jarayonlarni tashkil etishda aktuar hisob-kitoblarning rolini kuchaytirish imkoniyatlarini tadqiq etish;

O‘zbekiston Respublikasining hayot sug‘urtasi bozorining rivojlanish tendensiyalarida namoyon bo‘ladigan xususiyatlarini o‘rganish;

yosh bo‘yicha o‘lim koeffitsientlari va umr ko‘rish davomiyligi kabi demografik ko‘rsatkichlarning rivojlanish tendensiyalari va ularning hayot sug‘urtasi bozorining rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish;

---

Системы управления рисками в страховых организациях. Мир новой экономики. 2016. – №3. – С. 116-123; Насырова Г.А. Регулирование страховой деятельности: институциональный подход. Монография /М.: Изд-во Финуниверситета, 2012; Новиков В. Роль актуариев в инновационном развитии страхового бизнеса // Актуарий. 2009. № 1(3). С. 66-67.; Рыжков О.Ю. Методика формирования страховых резервов с использованием обобщенного актуарного базиса // Вестник НГУЭУ. 2015. № 1. С. 114-136; Соловьев А.К. Актуарные расчеты в пенсионном страховании. Москва, ФИС. 2005. С.240; Фалин Г.И. Математические основы теории страхования жизни и пенсионных схем. 3-е издание: АНКИЛ, Москва, 2007. 304 с; Турбина, К. Е., Асабина, С. Н. Мониторинг ранних признаков неплатежеспособности страховых организаций в системе страхового надзора. Страховое право – 2015. – №3 (66). – С. 12-42.; Цыганов А.А. и др., Управление рисками в страховых организациях: бизнес-процесс в соответствии с SOLVENCY II и нормативными требованиями в России. – Москва: КНОРУС. 2022. – 230 с; Шоломицкий А.Г. Финансирование накопительных пенсий: актуарные методы и динамические модели; Khmaladze E.V. Statistical Methods with application to Demography and Life Insurance. Chapman and Hall/CRC, 2013. 242p.

<sup>7</sup> Азимов Р.С. O‘zbekiston Respublikasida sug‘urtaning innovatsion rivojlanishi: nazariya, uslubiyot, amaliyot. Т. «Turon-Iqbol».2024.-320 b; Мирсадиқов М.А. Инклюзивное страхование в Узбекистане. Проблемы и перспективы развития. Т. Изд. «Turon-Iqbol». 2024. -192 с; ;Имомов Ш.Б. Страхование как инструмент защиты бизнеса. Ж. “Рынок, деньги и кредит”, 2003, №6 июнь,. С.28-34.; Шеннаев Х.М. Основные направления научных исследований в сфере страхования. Материалы международной научно-практической конференции «Перспективы развития страховой деятельности в реализации стратегии развития нового Узбекистана». Ташкент, 27.06.2022 г. С.243-247. ; Абдурахманов И. ва бошқалар. Суғурта назарияси ва амалиёти. Дарслик; -Т.: Иқтисод-Молия.,2020. С. 436.; Иминов Т.К. Суғурта бозори ислохотлари ривожланиш босқичида. Халқ сўзи, 08.01.2021, №5 (7785); Қўлдошев Қ.М. Ўзбекистонда ҳаёт суғуртаси ва уни ривожлантириш муаммолари. Ж. “Молия” 2014. №2, с. 32-36; Умаров Х.С. Страховой рынок Узбекистана: основные проблемы и тенденции развития. Автореферат диссертации на соискание степени кандидата наук. <https://mgimo.ru/about/news/announce/240931/>

hayot va pensiya sug'urtasi bozorini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida aholining sug'urta va jamg'arma mexanizmlariga munosabatini tahlil qilish; yosh bo'yicha o'lim ko'rsatkichlari asosida statik va dinamik hayot jadvallari yaratish;

O'zbekiston Respublikasining moliyaviy, demografik va me'yoriy xususiyatlarini hisobga olgan holda sug'urta zahiralari shakllantirish uslubiyotini takomillashtirish;

O'zbekiston Respublikasida xalqaro aktuar amaliyotni joriy etish shakllari va usullarini asoslash;

O'zbekiston Respublikasining moliyaviy, demografik va me'yoriy xususiyatlarini hisobga olgan holda hayotni sug'urtalovchi kompaniyalarning to'lov qobiliyatini baholash uslubiyotini rivojlantirish;

sug'urta biznes jarayonlarining mohiyati va O'zbekiston Respublikasi sug'urta qonunchiligining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aktuar funktsiyani rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasi sharoitida tayinlangan aktuariylar institutini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqot ob'ekti** sifatida O'zbekiston Respublikasi hayot sug'urtasi bozori olingan.

**Tadqiqot predmetini** hayot sug'urtasi bozorida sug'urta faoliyatini amalga oshirishda yuzaga keladigan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, ekonometrik modellashtirish, korrelyatsion va regression tahlil, demografik ko'rsatkichlarning stoxastik prognozlash usullari qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

sug'urta kompaniyalarida hayot sug'urtasi risklarini boshqarish uslubiyotini ularning biznes jarayonlariga aktuar hisoblarni joriy etish orqali takomillashtirishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

hayot sug'urtasi bo'yicha tushumlar zahirasi shakllantirish va undan foydalanish samaradorligini aniqlash uslubiyotini sug'urta sohasida statistik, moliyaviy va buxgalteriya hisoboti tizimini tahlil qilishning retrospektiv yondashuv usulini qo'llash orqali takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan;

hayot sug'urtasining qisqa muddatli qaltisli turlari bo'yicha sodir bo'lgan, ammo xabar qilinmagan zararlar zahirasi (IBNR) baholashning "Zanjirli narvon" usulini qo'llash orqali takomillashtirilgan;

sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyatini baholash va monitoring qilish uslubiyoti hayot sug'urtasi demografik va moliyaviy omillarining alternativ senariylariga asoslangan dinamik modelni ishlab chiqish orqali takomillashtirilgan;

respublikada sug'urta bozori rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modelni ishlab chiqish asosida, matritsaning singulyar qiymati yoyilmasi (Singular Value Decomposition) usulidan foydalanilgan holda hayot davomiyligini baholovchi koeffitsiyentlarning yosh va jins kesimida 2024 - 2050 yillar uchun ko'p variantli prognoz ko'rsatkichlari hisoblangan va ular asosida dinamik hayot jadvallari qurilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda hayot sug'urtasi kompaniyalari sugurta portfellari diversifikasiya darajasini oshirishga «hayotning muddatli sug'urtasi», «aralash hayot sug'urtasi» va «butun umr hayot sug'urtasi» kabi turlarini joriy qilish orqali erishishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

2019 yilgi yosh va jins kesimida berilgan o'lim ko'rsatkichlari asosida Heligman-Pollard usuli bo'yicha to'liq statik hayot jadvallari tuzildi va bu jadvallar hayot sug'urtasi kompaniyalarida tarif stavkalarini hisoblashda, sug'urta zahiralari shakllantirishda va kapitalning etarligini baholashda foydalanish imkonini beradi;

matrisalarning singulyar qiymati yoyilmasi uslubi bo'yicha 2024-2050 yillarga mo'ljallangan dinamik hayot jadvallari tuzildi, Bu jadvallardan hayotni sug'urtalovchi kompaniyalar tomonidan "investitsiyali hayot sug'urtasi", "ulushli hayot sug'urtasi" kabi innovatsion sug'urta mahsulotlarini aktuar asosini ishlab chiqishda foydalaniladi;

shakllantirilgan sug'urta zahiralari qabul qilingan sug'urta majburiyatlariga muvofiqligini tekshirish algoritmi ishlab chiqildi;

"zanjirli narvon" usuli bo'yicha sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zahirasini hisoblash algoritmi ishlab chiqilgan;

hayot sug'urtasi kompaniyalari biznes jarayonlarida aktuar funksiyani joriy qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Olingan natijalarning ishonchligi** tadqiqot ishida qo'llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarni rasmiy manbalardan, shu jumladan Xalqaro sug'urta nazoratchilari uyushmasi (IAIS), Xalqaro aktuariylar uyushmasi (IAA), SwissRe instituti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy banki, sug'urta tashkilotlarining statistik ma'lumotlaridan olinganligi, hamda tegishli xulosa va takliflarni mutassaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida olingan ilmiy xulosa va takliflardan respublikada hayotni uzoq muddatli sug'urtalash bozorini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqishda nazariy-uslubiy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya ishida ishlab chiqilgan tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi hayot sug'urtasi kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlash jarayonida foydalanish, dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida "Sug'urta nazariyasi", "Sug'urta iqtisodi", "Aktuar hisoblar", "Moliyaviy tahlil" fanlari bo'yicha o'quv, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni takomillashtirish hamda o'qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot ishi natijalarining amaliyotga joriy qilinishi.** O'zbekistonda hayot sug'urtasining uslubiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

sug'urta kompaniyalarida hayot sug'urtasi risklarini boshqarish uslubiyotini ularning biznes jarayonlariga aktuar hisoblarni joriy etish orqali takomillashtirish

taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 1 martdagi PQ-108-son "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 13-bandini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining (ILMA) 2024-yil 20-sentyabrdagi 03/19-1-1-3663-son ma'lumotnoma). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida respublikada hayotni sug'urtalash sohasiga aktuar hisoblash amaliyotining zamonaviy usullari joriy qilinadi;

hayot sug'urtasi bo'yicha tushumlar zahirasi shakllantirish va undan foydalanish samaradorligini aniqlash uslubiyotini sug'urta sohasida statistik, moliyaviy va buxgalteriya hisoboti tizimini tahlil qilishning «retrospektiv yondashuv» usulini qo'llash orqali takomillashtirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 1 martdagi PQ-108-son "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 1-bandini shakllantirishda foydalanilgan (ILMAning 2024-yil 20-sentyabr 03/19-1-1-3663-son ma'lumotnoma). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida hayotni sug'urtalash sohasida zahiralarni shakllantirish qoidalarini Xalqaro sug'urta nazoratchilari assotsiatsiyasi (IAIS) talablariga muvofiqlashtiriladi;

sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyatini baholash va monitoring qilish uslubiyotini hayot sug'urtasi demografik va moliyaviy omillarining alternativ senariylariga asoslangan dinamik modelni ishlab chiqish orqali takomillashtirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 1 martdagi PQ-108-son "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 19-bandini shakllantirishda foydalanilgan (ILMAning 2024-yil 20-sentyabrdagi 03/19-1-1-3663-son ma'lumotnoma). Natijada hayotni sug'urtalash sohasida sug'urta zahiralarni shakllantirishning prudensial qoidalarini IAIS talablariga muvofiqlashtiriladi;

respublikada sug'urta bozori rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion-regression modelini ishlab chiqish asosida, matritsaning singulyar qiymat dekompozitsiyasi (SVD) usulidan foydalanilgan holda qurilgan hayot jadvalaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 1 martdagi PQ-108-son "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 28-bandining maqsadli ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (ILMAning 2024-yil 20-sentyabr 03/19-1-1-3663-son ma'lumotnoma). Natijada hayot sug'urtasida zahiralarni shakllantirishning prudensial qoidalarini IAIS talablariga muvofiqlashtiriladi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishi doirasida olingan ilmiy va amaliy natijalar 12 ta ilmiy va ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiy mavzusi bo'yicha jami 36 ta ilmiy ishlar, shu jumladan 1 ta mualliflik monografiyasi, 3 ta jamoaviy monografiylar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 15 ta maqolalar chop etilgan.

**Ishning tuzilishi va hajmi:** Dissertasiya tarkibi kirish, 5 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 203 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot ishining dolzarbligi asoslangan, tadqiqot ishining maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti belgilab berilgan. Ishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, tadqiqotning uslubiy asoslari va muallifning shaxsiy hissi asoslab berilgan. Amalga oshirilgan tadqiqotning sinovdan o'tkazilishi va dissertatsiya ishining boshqa tadqiqot dasturlari bilan bog'liqligi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiya ishining **“Hayot sug'urtasi va uning milliy iqtisodiyotdagi o'rni”** deb nomlangan birinchi bobida hayot sug'urtasining nazariy va uslubiy asoslari hamda uning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni yoritilgan. Ma'lumki, sug'urta biznesi boshqa har qanday biznesga qaraganda ko'p darajada noaniqlikni o'z ichiga oladi. Shu sababli, hayotni sug'urtalashning ehtimollik va statistik asoslari tavsifiga alohida paragraf bag'ishlangan.

Hayot sug'urtasining iqtisodiy mohiyati sug'urta qildiruvchilardan bir martalik yoki davriy to'lanadigan badallar ko'rinishida olingan mablag'larni qayta taqsimlashda, sug'urta fondini shakllantirishda va ushbu fondan mablag'larni keyinchalik sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan sug'urta voqealari ro'y berganda sug'urtalangan shaxslarga to'lashdan iborat.

Hayotni sug'urtalash bankdagi jamg'arma depozitlaridan farqli o'laroq, fuqarolarga nisbatan arzon sug'urta badallarini muntazam ravishda to'lash orqali sug'urta maqsadlarida uzoq muddatli jamg'armalarni amalga oshirish imkonini beradi. Shunday qilib, bank jamg'arma depozitlari va uzoq muddatli hayotni sug'urtalash mahsulotlari bir-birini takrorlanmaydi, balki bir-birini to'ldiradi, aholining turli jamg'arma manfaatlarini aks ettiradi.

Bozor rivojlanishi bilan hayotni sug'urtalash mahsulotlari turlari o'zgaradi. Yangi mahsulotni ilgari surish samaradorligi nafaqat hayotni sug'urtalovchi kompaniyalarning marketing strategiyalariga, balki turli mamlakatlarda turlicha bo'lgan iqtisodiy, siyosiy, qonunchilik va ijtimoiy-madaniy omillarga ham bog'liq. Biroq, shunga qaramay, aksariyat mamlakatlarda hayotni sug'urtalash sohasining rivojlanishiga xos bo'lgan tendentsiyalar mavjud:

- 1) hayotni sug'urtalash sohasidagi yangi mahsulotlarda sug'urta himoyasiga emas, balki jamg'armalarga ko'proq e'tibor berilmoqda;
- 2) yakka tartibda va guruhlar uchun sotiladigan oddiy mahsulotlardan yakka tartibda sotiladigan murakkab mahsulotlarga o'tish kuzatilmoqda;
- 3) sug'urta mahsulotlarini agentlar tarmoqlari orqali emas, balki bevosita raqamli texnologiyalardan foydalangan holda sotishga o'tish kuzatilmoqda.

Sug'urta, shu jumladan hayot sug'urtasi xavflarni baholash katta sonlar qonunini (LNA) qo'llash va sug'urta egalari o'rtasida riskni taqsimlash bo'yicha taxminlarga asoslanadi.

Katta sonlar qonunida ko'ra statistik jihatdan bir xil risklar birlashtirilganda, risklar soni ortib borishi bilan umumiy xavf ham mutanosib ravishda ortadi, lekin umumiy xavfning nisbiy o'zgaruvchanligi kamayadi. Ya'ni, sug'urtaning ehtimollik-statistik (aktuar) asosi shundaki, bir xil va mustaqil risklarning kombinatsiyasi umumiy riskning o'zgaruvchanligini kamaytiradi.

Butun dunyoda davlatning pensiya tizimidagi rolini pasaytirish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Ko'pgina mamlakatlar pensiyalar uchun mas'uliyatning katta qismini hayot va pensiya sug'urtasi kompaniyalariga o'tkazmoqdalar. Rivojlangan mamlakatlarda bu tendentsiya aholining qarishi natijasidir. Aholisi yoshroq bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat va xususiy pensiyalar o'rtasidagi muvozanatni qayta ko'rib chiqish zarurati moliyaviy-iqtisodiy xarakterdagi muammolar (mehnat unumdorligining pastligi, yuqori ishsizlik va boshqalar) bilan bog'liq.

Hayot sug'urtasi kompaniyalari sarmoyalari hisobidan ichki jamg'armalarning o'sishini rag'batlantirish iqtisodiy foydadan tashqari, psixologik jihatdan ham foydalidir. Buning sababi shundaki, mamlakat o'zining ichki jamg'armalarini yaratganda, u chet el investitsiyalaridan kamroq bog'liq bo'ladi. Chunki xorijiy sarmoyalarning aksariyati uzoq muddatli jamg'armalardir. Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti xalqaro xarakterga ega bo'lishiga qaramay, iqtisodiyotning strategik tarmoqlari (neft-gaz sanoati, energetika, foydali qazilmalar va boshqalar) loyihalarini moliyalashtirish uchun ichki investitsiyalarni, xususan, davlat investitsiyalarini yo'naltirish zarur. Investitsiyalarda ichki jamg'armalar ulushining kamayishi yirik korxonalarining, shu jumladan davlat korxonalarining xorij nazoratiga o'tishiga olib keladi. Ya'ni, mamlakatda ichki va xorijiy mulkchilik darajalari o'rtasida tegishli muvozanatni saqlash kerak. Ushbu muvozanatning buzilishi mahalliy tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilar psixologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida sug'urta sohasining o'zi iqtisodiyotning holatiga bog'liq. Xususan, mamlakatda hayotning umumiy darajasi va sifati sug'urtaga bo'lgan talab darajasiga katta ta'sir ko'rsatsa, yuqori inflyatsiya barcha jamg'armalarga, jumladan, sug'urta mukofotlari ko'rinishidagi jamg'armalarga jiddiy susaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Dissertatsiya ishining **“Jahon hayot sug'urtasi bozorining holati va rivojlanish tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida jahon hayot sug'urtasi bozorining asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Sug'urta bozorining holati odatda yalpi sug'urta mukofotlari hajmi, sug'urta penetratsiyasi (yalpi mukofotlarning yalpi ichki mahsulotga nisbati) va sug'urta zichligi (jon boshiga sug'urta mukofotlari miqdori) kabi ko'rsatkichlar bilan o'lchanadi. Ushbu ko'rsatkichlar dinamikasini hayot sug'urtasi bozorining moliyaviy, ijtimoiy va demografik omillari bilan chambarchas bog'liq holda o'rganish uning harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlashga yordam beradi.

1980-2022 yillardagi yalpi sug'urta mukofotlarining o'sish sur'atlari tendentsiyasi tahlili Jahon hayot sug'urtasi bozorining o'zgaruvchan bozor ekanligini ko'rsatadi.

1-jadvalda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar kesimida jahon sug'urta bozorida yalpi sug'urta mukofotlarining o'sish sur'atlarini hisoblash natijasi keltirilgan.

Rivojlangan mamlakatlarda penetratsiya darajasi 1980 yildagi 2,5 foizdan 2000 yilda 5,7 foizgacha oshgan. Ya'ni, ushbu davrda rivojlangan mamlakatlarning hayot sug'urtasi bozorlarida yalpi sug'urta mukofotlarining o'rtacha yillik o'sish sur'ati YaIMning o'rtacha yillik o'sish sur'atlaridan qariyb 2,5 baravar yuqori bo'ldi. 2000 yildan boshlab pasayishlar kichik tebranishlar bilan kuzatilishi mumkin. 2022 yilda rivojlangan mamlakatlar uchun penetratsiya darajasi 3,7% ni tashkil etdi.

### 1-jadval

#### Jahon hayot sug'urta bozori bo'yicha yalpi mukofotlar o'cish sur'ati dinamikasi. 1980-2022 yy.<sup>8</sup>

Davr	Rivojlangan davlatlar (%)	Rivojlanayotgan davlatlar (%)	Jahon bozori (%)
1980–2022	3,1	8,7	4,0
1980–2008	5,4	10,4	6,2
2009–2019	-0,7	7,0	0,3
2020–2022	-1,7	-0,3	-1,0

Rivojlanayotgan mamlakatlarda hayot sug'urtasining penetratsiya darajasi ko'rib chiqilayotgan davrda ortib boradi. Agar 1980 yilda u 0,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilda 1,8 foizni tashkil etdi. COVID-19 pandemiyasi ushbu ko'rsatkichning o'sish dinamikasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi va 2022-yilda u 1,6 foizni tashkil etdi.

Jahon hayot sug'urtasi bozori haqida ham shunday deyish mumkin. Penetratsiya darajasi 2000 yildagi 4,7 foizdan 2022 yilda 2,8 foizgacha kamaydi.

1980 yildan 2022 yilgacha bo'lgan davrda butun dunyo bo'ylab hayot sug'urtasi zichligi 43 AQSh dollaridan 354 AQSH dollariga o'sdi. 2000–2022 yillarga rivojlanayotgan mamlakatlarda hayot sug'urtasi zichligi 13 AQSh dollaridan 98 AQSh dollariga ko'tarildi. Rivojlangan mamlakatlar uchun bu ko'rsatkichning tarixiy maksimaliga 2007 yilda erishilgan - 2241 dollar. 2007 yildan boshlab uning qisqarishi kuzatildi va 2022 yilda rivojlangan mamlakatlarda hayotni sug'urtalash zichligi 1973 dollarni tashkil etdi.

Jahon kapital bozorlaridagi tendentsiyalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar bo'yicha foiz stavkalari so'nggi qirq yil davomida ko'plab bozorlarda pasayish tendentsiyasiga ega. Masalan, 1980-2020 yillardagi 10 yillik AQSh g'aznachiligi daromad foiz stavkasi 15,4% dan 0,6% gacha kamaydi

Past foiz stavkalari sug'urtalovchilarning rentabelligi va to'lov qobiliyatiga bevosita zarar etkazishi mumkin, chunki sug'urtalovchi duch keladigan foiz stavkasi xavfi uning aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi nomuvofiqlik xavfi bilan bog'liq,

<sup>8</sup> Swiss Re Institute ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. <https://www.sigma-explorer.com>

ayniqsa o'z mahsulotlariga kafolatlangan stavkalarni taklif qiladigan kompaniyalarda.

## 2-jadval

### Sug'urta zichligi o'zgarishi dinamikasi. 1980-2022 yy. (AQSh dollari)<sup>9</sup>

Davr	Rivojlangan davlatlar (%)	Rivojlanayotgan davlatlar (%)	Jahon bozori (%)
1980	223.00		43.00
2007	2 241.00	39.00	365.00
2019	1 994.00	92.00	353.00
2022	1 973.00	98.00	354.00

Kapital bozordagi daromadlilik foiz stavkalarining o'zgarishi hayot sug'urtasi tashkilotlariga quyidagi yo'llar bilan ta'sir qiladi:

- Foiz stavkalarining o'zgarishi bilan foiz stavkalariga sezgir bo'lgan aktiv va majbo'riyatlarining bozor qiymati ham o'zgaradi. Uzoq muddatli obligatsiyalar va majburiyatlar qisqa muddatli obligatsiyalarga qaraganda ko'proq zarar ko'radi, chunki ular stavkalarining o'zgarishiga ko'proq sezgir;

- Foiz stavkalarining o'zgarishi sug'urtalanuvchilarning xatti-harakatlariga ta'sir qilishi mumkin. Foiz stavkalarining ko'tarilishi sug'urtalanuvchilarning o'z majbo'riyatlaridan voz kechishi va boshqa investitsiya turlarini izlash istagini kuchaytirishi mumkin. Foiz stavkalarining pasayishi esa sug'urtalanuvchilarni yuqori foiz stavkasi kafolatlangan shartnomalarda kutilganidan uzoqroq qolishga undashi mumkin.

Kapital bozorlarida past foizli muhitdan chiqish belgilari kuzatilmoqda va bu hayot sug'urtasi kompaniyalari uchun foydali bo'ladi. Yuqori foiz stavkalari diskont stavkasini oshiradi va pul oqimlarining joriy qiymatini kamaytiradi. Sug'urtalovchilarning majburiyatlari ularning aktivlariga qaraganda uzoqroq muddatga ega bo'lganligi sababli, bu ularning foydasiga ishlaydi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, hayot sug'urtasi jahon bozori ma'lum yillarda sezilarli o'sish sur'atlariga ega bo'lgan bo'lsada keying 15 yil Ichida juda past yoki salbiy o'sish sur'atlari kuzatildi. Ushbu davrda hayot sug'urtasi bo'yicha to'lovlarning o'sish sur'atining pasayishining asosiy sabablari quyidagilar hisoblanadi:

- depressiv iqtisodiy vaziyat, ish haqining turg'unligi, past foiz stavkalari an'anaviy sug'urta jamg'arma mahsulotlarini moliyaviy samaradorligini pasayishiga olib keldi;

- hayot sug'urtasi kompaniyalari uchun jiddiy raqobatni yuzaga keltirgan kapital bozorida jozibador daromadga ega bo'lgan turli xil investitsiya fondlarining bo'linmalari (UIF) kabi muqobil moliyaviy vositalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi;

- sug'urta bozorini nazorat qiluvchi va tartibga soluvchi davlat tashkilotlari tomonidan sug'urta kompaniyalari to'lov qobiliyati, kapitali etarliligi bo'yicha talablarning kuchaytirilishi, Solvency II standartlarini joriy qilinishi;

<sup>9</sup> Swiss Re Institute ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. <https://www.sigma-explorer.com>

- postindustrial jamiyatlarda oila institutining eroziyasi.

Dissertatsiya ishining **“O‘zbekiston Respublikasida hayot sug‘urtasi”** deb nomlangan uchinchi bobi mamlakatimizda 1991-2023-yillar mobaynida hayot sug‘urtasi rivojlanishining evolyutsiyasi, muammolari va rivojlanish istiqbollarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

O‘zbekiston Respublikasidagi uy xo‘jaliklari, dunyoning boshqa mamlakatlaridagi uy xo‘jaliklari kabi, o‘z hayot siklining turli bosqichlariga o‘tayotganda, resurslarni vaqt kesimida taqsimlash bilan shug‘ullanadilar. Ammo boshqa ko‘plab mamlakatlardan, ayniqsa rivojlangan mamlakatlardan farqli o‘laroq, ular resurslarni vaqtincha taqsimlashda birinchi navbatda jismoniy aktivlarga tayanadilar.

Bizning fikrimizcha, uy xo‘jaliklari aktivlari tarkibida moliyaviy aktivlarning o‘rishiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri bu "ishonch masalalari" bo‘lib, bu muammo ba‘zan sifatsiz moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi sug‘urtalovchilar bilan sodir bo‘lgan tajribalar tufayli yanada og‘irlashadi. 2021-yilda O‘zbekistonda katta yoshlilarning atigi 3 foizi o‘z jamg‘armalarini banklarda saqlab qolgani mamlakatning moliya tizimiga ishonchi pastligidan dalolat beradi<sup>10</sup>. Rasmiy moliya institutlari bilan o‘zaro munosabatlarda o‘z-o‘zidan shubhalanish kabi xatti-harakatlar omili ham mavjud.

Bizning fikrimizcha, muammolar, birinchi navbatda, hayot sug‘urtasi bo‘yicha kam xabardorlik bilan bog‘liq, shuningdek, sug‘urta kompaniyalari haqida uy xo‘jaliklarining tasavvurlari bilan bog‘liq.

Bu erda SSRI (CCCP) parchalanishi natijasida o‘z jamg‘armalarini yo‘qotgan butun bir avlodning achchiq tajribasi muhim rol o‘ynaydi. 1992 yilda SSSR Sberbankining 40 million omonatchilarining jamg‘armalari hajmi 345 milliard rublga baholangan, ya‘ni o‘sha paytdagi mamlakat yalpi ichki mahsulotining uchdan biridan ko‘prog‘ini tashkil qilgan<sup>11</sup>.

2014-2022 yillar davomida hayot sug‘urtasi bo‘yicha mukofotlar o‘rish dinamikasini tahlil qilish, sug‘urta mukofotlarining o‘rtacha yillik nominal va real o‘rish sur‘atlari mos ravishda 72,6 % va 55,6% foizni tashkil etganligini ko‘rsatadi.

Ta‘kidlash joizki, bunday jadal o‘rish ko‘p jihatdan yuridik va jismoniy shaxslarga hayotni uzoq muddatli sug‘urtalash shartnomasini tuzishda berilgan soliq imtiyozlari samarasidir. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2007-yil 24-maydagi 59-sonli Qaroriga ko‘ra yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan hayotni uzoq muddatli sug‘urtalash shartnomasi bo‘yicha to‘langan sug‘urta mukofotlari summalari daromad solig‘idan ozod qilindi.

Ushbu imtiyozlar jismoniy va yuridik shaxslarning hayot sug‘urtasi shartnomalarini tuzishni rag‘batlantirish, hayot sug‘urtasi bozorini kengaytirish

---

<sup>10</sup> Babasyan D., Melecky M., Podchoeva N. From livestock to lifelong savings: Improving financial inclusion in Uzbekistan. 25.01.2023. URL: <https://blogs.worldbank.org/psd/livestock-lifelong-savings-improving-financial-inclusion-uzbekistan>

<sup>11</sup> Советские вклады вернут не раньше 2025 года. URL: <https://www.gazeta.ru/business/2021/09/30/14037847.shtml> (действительно на 25.09.2023 г.).

maqsadida berildi. Ushbu imtiyoz bozor uchun ijobiy ta'sir ko'rsatdi va mukofot tushumlarining ko'payishiga olib keldi (3-jadval).

O'zbekiston hayot sug'urta bozori hozirgi vaqtda quyidagi muammolarga duch kelmoqda:

- aholining sug'urta kompaniyalariga ishonchi yo'qligi;
- sug'urta tashkilotlari aktivlarini uzoq muddatli investitsiya vositalariga ishonchli investitsiyalash vositalarining yo'qligi;
- inflyatsiyaning yuqori darajasi va buning natijasida hayotni jang'arma sug'urtasi mahsulotlarining foydalilik stavkasining manfiy ekanligi;
- sug'urta kompaniyalari tomonidan kafolatlangan daromadlar stavkasi bank depozitlari foiz stavkalaridan ancha past.

### 3-jadval

#### Hayot sug'urtasi yalpi sug'urta mukofotining sinflar bo'yicha taqsimoti. O'zbekiston. 2019–2023 yy.<sup>12</sup>

Sug'urta turlari (sinflari)	2019	2020	2021	2022	2023
I sinf – hayot va annuitetlar	138,47	163,75	305,34	520,35	146,12
II sinf - tug'ilish va to'y	–	0,02	0,02	0,00	0,00
III sinf – uzoq muddatli hayot sug'urtasi	423,87	136,15	385,23	976,65	100,77
IV sinf – sog'lik sug'urtasi	–	0,00	0,70	0,02	0
2 va undan ko'p sinfga tegishli turlar	0,05	0,05	6,81	0,89	1,93
IBFJMS* (annuitet)	15,23	22,90	25,70	26,77	35,64
<b>Jami</b>	<b>577,62</b>	<b>322,87</b>	<b>723,80</b>	<b>1 524,68</b>	<b>284,46</b>

\* IBFJMS – Ish beruvchining fuqorolik javobgarligi majburiy sug'urtasi

Hayot sug'urtasi salohiyatini oshirish bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi, ularning aksariyati ushbu soha uchun qulay qonunchilik muhitini yaratish va unga bo'lgan ishonchni oshirishga qaratilgan. Ushbu chora-tadbirlar ro'yxati:

- yangi soliq imtiyozlari va subsidiyalarini joriy etish va amaldagilarini kengaytirish;
- investitsiyali hayot sug'urtasi va “Hissali hayot sug'urtasi” (unit linked life insurance) kabi O'zbekiston uchun innotsion hisoblanmish sug'urta mahsulaotlari qonuniy va normariv asoslarini yaratish;
- hayotni sug'urtalashni moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va undan garov sifatida foydalanish imkoniyatini ta'minlash;
- hayotni sug'urtalovchilarga nodavlat pensiya tizimida ishtirok etishiga ruxsat berish;

<sup>12</sup> Istiqbolli loyohalar milliy agentligi sayti ([www.napp.uz](http://www.napp.uz)) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

- sug'urtalanuvchilarning aktivlari ustidan nazoratni kuchaytirish uchun ixtisoslashtirilgan depozitariydan majburiy foydalanish;
- “Transport egalarining uchinchi shaxslar oldidagi fuqorolik javobgarligi sug'urtasi” kabi hayot sug'urtasi bo'yicha ham kafolat fondini tashkil etish;
- moliyaviy barqarorlikni tartibga solishni kuchaytirish;
- aholining sug'urta madaniyatini oshirishga qaratilgan ommaviy axborot vositalarida maxsus dasturlarni tashkil etish.

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasida uzoq muddatli hayot sug'urtasi va pensiya ta'minotini rivojlantirishning katta istiqbollari mavjud. Birinchi navbatda demografik omil mavjudligini ta'kidlash lozim. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekiston Respublikasi aholisi soni 37 milliondan oshdi. O'zbekiston aholisining 65 va undan katta yoshdagilar ulushi 5,4 foizni tashkil etdi, bu esa O'zbekistonning “demografik qarish yoqasidagi” davlatlar qatoridan joy olganini anglatadi<sup>13</sup>. Aholining qarishi va buning natijasida ijtimoiy himoya tarmog'iga xarajatlarning ko'payishi davlat pensiya dasturlariga qo'shimcha sifatida hayot sug'urtasini rivojlantirishni talab etadi.

Ikkinchidan, davlat tomonidan sug'urta sohasini tartibga soluvchi qonunchilik bazasini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar siyosati amalga oshirilmoqda. Xususan, sug'urta tashkilotlarining roli va rivojlanishini yanada oshirish, ularning barqarorligini (shu jumladan, ustav kapitali hajmiga qo'yiladigan talablarni kuchaytirish orqali) va samaradorligini xalqaro me'yorlar va standartlarga muvofiqligini ta'minlash, sug'urta faoliyatini kengaytirishni nazarda tutuvchi qator qarorlar qabul qilindi.

Sanab o'tilgan omillarni baholab, hayotni sug'urtalash sohasining yanada barqaror o'sishini bashorat qilish mumkin, mavjud salohiyat esa hayotni uzoq muddatli sug'urtasi mahsulotlarini aholi tomonidan faol foydalaniladigan an'anaviy moliyaviy vositalar qatoriga kiritishni ko'rib chiqishga asos beradi.


Dissertatsiya ishining **“Hayot sug'urtasi zahiralarini shakllantirish uslubiyoti va unda hayot jadvallarinin o'zni”** deb nomlangan to'rtinchi bobi sug'urta tashkilotlari uchun demografik risk hisoblanmish o'lim koeffitsientlarining pasayishi va "aholini qarishi" kabi demografik hodisalarni o'rganishga, shuningdek, demografik omillarni o'zgarishi sharoitida sugurta zahiralarini shakllantirish muammolariga bag'ishlangan. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining elementi sifatida hayot sug'urtasi barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun sug'urtalovchilar demografik jarayonlardagi o'zgarishlarning tabiati va tendentsiyalari, shu jumladan insonning hayot sikllari yo'li va ularning eng ko'p turlari haqida tushunchaga ega bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, agar 1991-yilda pensiya yoshidagi aholi ulushi 5,1% ni tashkil

<sup>13</sup> Демографическая ситуация в Республике Узбекистан [https://stat.uz/images/uploads/reliz-2023/demografiya-press-reliz-27\\_10\\_2023-rus1122.pdf](https://stat.uz/images/uploads/reliz-2023/demografiya-press-reliz-27_10_2023-rus1122.pdf)

etgan bo'lsa, 2023-yil boshida bu ko'rsatkich 12,1% ni tashkil etdi (1-rasm). BMT Aholishunoslik bo'limi prognozlariga ko'ra, O'zbekistonda pensiya yoshidagi aholi ulushi 2040-yilda 17,2 foizni, 2050-yilga borib esa 21,1 foizni tashkil etadi<sup>14</sup>.

Hayot sug'urtasi sohasi sug'urtalovchilarining risklari moliyaviy faktorlar (bozor daromad darajasi, xavf-xatarsiz daromad darajasi, inflyatsiya darajasi va boshqalar), demografik faktorlar (o'lim darajasi, sug'urtalanganlarning umr ko'rish davomiyligi, nogironlik darajasi va boshqalar), shuningdek sug'urtalanuvchilarning riskka munosabati va ish yuritish xarajatlariga (da'volarni qoplash, reklama, andarrayting va boshqalar) bog'liq.




Sug'urtalovchining majburiyatlari o'lim darajasiga ta'sirchanligini ta'kidlash lozim. Rejalashtirilgan va joriy o'lim ko'rsatkichlaridagi kichik farq sug'urtalovchining portfel majburiyatlarini baholashda sezilarli og'ishlarga olib kelishi mumkin. Sug'urtalangan shaxsning umr ko'rish davomiyligini to'g'ri baholamaslik kelajakdagi yo'qotishlarga va o'ta og'ir hollarda to'lovga layoqatsizlikka olib kelishi mumkin. O'rtacha umr ko'rish davomiyligini ortiqcha

<sup>14</sup> [https://population.un.org/wpp/~WPP2022\\_POP\\_F02\\_1\\_POPULATION\\_5-YEAR\\_AGE\\_GROUPS\\_BOTH\\_SEXES.xlsx](https://population.un.org/wpp/~WPP2022_POP_F02_1_POPULATION_5-YEAR_AGE_GROUPS_BOTH_SEXES.xlsx)

<sup>15</sup> Birlashgan millatlar tashkiloti aholishunoslik bo'limi sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. [https://population.un.org/wpp/~WPP2022\\_POP\\_F02\\_1\\_POPULATION\\_5-YEAR\\_AGE\\_GROUPS\\_BOTH\\_SEXES.xlsx](https://population.un.org/wpp/~WPP2022_POP_F02_1_POPULATION_5-YEAR_AGE_GROUPS_BOTH_SEXES.xlsx)

baholash sug'urta xizmatlari narxining oshishiga olib keladi, bu esa mijozlarning hayotni sug'urtalash sohasidagi boshqa kompaniyalarga ketishiga olib keladi. Shuning uchun o'limni aniq bashorat qilish hayot sug'urtasi kompaniyasining moliyaviy ko'rsatkichlari va raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, to'lov qobiliyatini tartibga solish talablariga javob berish uchun juda muhimdir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida o'lim darajasining kamayishi ko'p jihatdan go'daklar va bolalar o'limi ko'rsatkichlarining kamayishi va ozroq darajada 5 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan davrda o'lim darajasining pasayishi hisobiga sodir bo'lmoqda (2-rasm).



2-расм. O'zbekistonda o'lim koeffitsiyentining ma'lum bir yosh guruhlari bo'yicha dinamikasi. 1991-2023 yy.<sup>16</sup>

Dissertatsiya ishida hayot to'liq jadvalarinini tuzish uchun Heligman-Pollard modeli qo'llanildi, u quyidagi shaklga ega:

$$\frac{q_x}{1-q_x} = A(x-B)^C + De^{-E(\ln x - \ln F)^2} + GH^x. \quad (1)$$

Bu formulada  $q_x$  -  $x$  yoshida o'lim yuz berishi ehtimoli, A, B, C, D, E, F, G, H - model parametrlari. Heligman-Pollard modelining noma'lum parametrlarini baholash uchun Levenberg-Marquardt usuli tanlandi va hisob-kitoblar qo'llaniladigan dasturiy mahsulot R da amalga oshirildi va bu parametrlar nuqtali baholari 4-jadvalda keltirildi. Nuqtali baholash natijasi grafik ko'rinishda 3-rasmda keltirilgan.

4-jadval.

Heligman-Pollard modelb parametrlari nuqtali bahosi

Parametr	A	B	C	D	E	F	G	H
Erkaklar	0,0008	0,004	0,091	0,0007	9,3090	22,308	0,00005	1,106
Ayollar	0,0006	0,004	0,091	0,0008	11,17080	24,539	0,00004	1,106


O'lim bilan bog'liq jarayonlarning ehtimoliy tabiati stoxastik modellashtirish va prognozlash usullaridan foydalanishni talab qiladi. Bu, ayniqsa, ularning kelajakdagi rivojlanishi prognozlarining to'g'riligiga nisbatan juda muhimdir. O'limni prognozlashning stoxastik modellari orasida bugungi kunda mashhur Li-Karter modeli mavjud.

<sup>16</sup> Muallif tomonidan [www.stat.uz](http://www.stat.uz), [www.population.un.org/wpp](http://www.population.un.org/wpp) ma'lumatlar portallari asosida qurilgan

Li-Karter modeli yoshga oid o'lim darajasi nafaqat  $x$  yoshiga, balki  $t$  kalendar vaqtiga ham bog'liqligini taxmin qiladi. Vaqt o'zgaruvchisi  $t$  ning ta'siri modelda qandaydir deterministik funksiya orqali ifodalangan. Model quyidagicha ko'rinishda:

$$\ln(m(x, t)) = a(x) + b(x)k(t) + e(x, t), \quad t = 1, 2, \dots, T, x = 0, 1, \dots, n,$$

bu erda  $a(x)$  - yoshga qarab o'lim darajasining xarakterini tavsiflash uchun kiritilgan komponent;  $b(x)$  -  $x$  yoshidagi shaxs uchun o'lim yuz berishi ehtimolini  $k(t)$  tendensiyasiga nisbatan o'zgaruvchanligini tavsiflovchi komponent;  $k(t)$  -  $t$  vaqt ichida o'lim darajasining o'zgarishini tavsiflovchi komponent;  $e(x, t)$  model tomonidan hisobga olinmagan yoshga bog'liq muayyan ta'sirlarni aks ettiruvchi tasodifiy xatolarni ifodalaydi.  $e(x, t)$  mustaqil tasodifiy miqdorlar bo'lib, odatda o'rtacha 0 va  $\sigma^2$  dispersiya ega normal taqsimotga bo'ysinishi faraz qilinadi.



**3-rasm. O'lim ehtimolligi logarifmi grafigi<sup>17</sup>.**

Sug'urta zahiralari sug'urtalovchi tomonidan o'z zimmasiga olgan sug'urta majburiyatlarini to'liq hajmda o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan mablag'larning bahosini ifodalaydi. Matematik zahiralari uzoq muddatli hayot sug'urtasida sug'urta zahiralari tarkibida katta ulushni tashkil etadi.

Matematik zahirani hisoblash uchun ikkita yondashuv qo'llaniladi: prospektiv va retrospektiv. Prospektiv yondashuv sug'urtalovchining kelajakdagi majburiyatlari va kelajakdagi daromadlarining joriy qiymatini baholashga asoslanadi. Retrospektiv yondashuvda matematik rezerv hisobi qabul qilingan sug'urta mukofotlari,

<sup>17</sup> Muallif ishlanmasi

to'langan sug'urta pullari va bu tu'lovlar bilan bog'liq ish yuritish xarajatlarini hisobot sanasidagi yig'ma qiymatlarini baholash asosida amalga oshiriladi.

Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta kompaniyalari amaliyotida ko'pincha prospektiv yondashuv qo'llaniladi, chunki u mukofot stavkasi belgilangan paytdan boshlab yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni, shuningdek shartnomaning demografik va moliyaviy parametrlarida yuzaga kelishi mumkin o'zgarishlarni hisobga oladi. Aktuar adabiyotlarda ko'proq prospektiv yondashuv yoritiladi.

Retrospektiv yondashuv hisob-kitobda shartnomaning amal qilish muddati davomida hisobot sanasigacha bo'lgan davrda haqiqiy moliyaviy va demografik ko'rsatkichlardan foydalanishni nazarda tutadi va kelajakda shartnoma bo'yicha majburiyatlarni baholashga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarni hisobga olmaydi. Ya'ni, retrospektiv usullardan foydalangan holda matematik zahirani hisoblash hisobot sanasida aktuariyda mavjud bo'lgan ma'lumotlarga asoslanadi. O'zbekistondagi hayot sug'urtasi kompaniyalari portfelining tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda muddatidan oldin tugatilgan shartnomalar salmog'i sezilarli darajada ko'p. Ushbu holat istiqbolli yondashuvni qo'llashda aktuar bazani yaratish jarayonini murakkablashtiradi. Ushbu holatni va shuningdek sug'urta tashkilotlarida aktuar hisob-kitoblarni amalga oshish bo'yicha mutaxassislar etishmasligini (sug'urta bozorida sertifikatlangan aktuariylar soni bor-yug'i 6 kishini tashkil etadi) hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi sharoitida retrospektiv yondashuvdan foydalanish afzalroqdir.

Ma'lumki, O'zbekistonda tartibga soluvchi tashkilot tomonidan sug'urta zahiralarini to'g'risidagi Nizomda tavsiya etilgan zahiralarini shakllantirish usullari Solvency I to'lov qobiliyati standartlari va (IFRS) "Sug'urta shartnomalari" 4-xalqaro moliyaviy hisobot standartiga (MHXS 4) asoslangan.

Nizomning hayot sug'urtasida zahiralarini shakllantirish bo'yicha asosiy kamchiliklaridan biri hayot sug'urtasining jamg'arma turlari bo'yicha zahirani (HJZ) hisoblash uchun tavsiya etilgan formuladir. Nizomning 19 – moddasiga ko'ra "Hayotni sug'urta qilishning jamg'arilib boruvchi turlari bo'yicha zahira sug'urta shartnomasining amal qilish muddati to'liq tugagunga qadar yoki sug'urta hodisasi yuz bergunga qadar bazaviy sug'urta mukofotining 92 foizidan va uni joylashtirishdan (unga hisoblangan foizlardan) olinadigan investitsiya daromadining 50 foizidan kam bo'lmagan hajmda har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha hisoblanadi". Demak bazaviy sug'urta mukofoti HJZ ni hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Nizomning 7-bandiga muvofiq bazaviy sug'urta mukofoti hisobot davrida tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha tushgan sug'urta mukofotlaridan vositachilik xizmatlarini ko'rsatilganlik uchun hisoblangan komission mukofoti va ogohlantirish chora-tadbirlari zahirasini shakllantirishga yo'naltirilgan mablag'lar summasini chegirandan so'ng qoladigan qoldiq. Bu formulaning kamchiliklari:

- sug'urtalanuvchining yoshi va jinsi hisobga olinmagan. 20 yoshli va 60 yoshli sug'urtalanuvchilar uchun bir xil zahira shakllantiriladi, vaholanki bu sug'urtalanuvchilarning portfel uchun qaltislik darajasi bir-biridan keskin farq qiladi;

- uzoq muddatli jamg'arma turlarida sug'urta mukofotlari (badallari) odatda annuitet shaklida to'lanadi. Regulyator tomonidan tavsiya etilgan usul bo'yicha HJZ hisoblanganda oldingi hisobot davrlarida to'langan badallar hisobga olinmaydi, bu esa zahirani etarli darajada shakllanmasligiga olib keladi.

Majburiyatlarning muvofiqligini tekshirish bo'yicha talablarning yo'qligi yuqorida qayd etilgan Nizomning kamchiliklaridan biridir. Darhaqiqat, 4-son MHXSning 15-bandiga binoan, "Sug'urtalovchi har bir hisobot davrining oxirida o'z sug'urta shartnomalari bo'yicha kelajakdagi pul oqimlarining joriy hisob-kitoblaridan foydalangan holda, u tomonidan tan olingan sug'urta majburiyatlari etarli yoki yo'qligini baholashi kerak"<sup>18</sup>.

Hayot sug'urtasida sug'urtalovchining javobgarligi muvofiqligini tekshirishning turli usullari mavjud. U yoki bu usulni tanlash sug'urta qonunchiligiga muvofiq zahiralarini shakllantirish qoidalariga bog'liq. Sug'urtalovchining majburiyatlarining muvofiqligini tekshirish uchun dissertatsiyada taklif qilingan algoritmi milliy sug'urta qonunchiligining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi va 5-jadvalda keltirilgan. Jadvaldagi ko'rsatkichlar shartli va taklif qilingan usulning aniqligi uchun keltirilgan:

**5-jadval**

**Majburiyatlarning muvofiqligini tekshirish. Retrospektiv yondashuv (shartli birliklarda)<sup>19</sup>**

Sug'urta turi	Sug'urta mukofotlari tushumining jamlanma qiymati	Agentlik to'lovlarining jamlanma qiymati	Sug'urta to'lovlari va ularni tartibga solish bilan bog'liq xarajatlar jamlanma qiymati	Hisobot sanasida shakllantirilgan zaahiralar qiymati	Tekshiruv natijasi (2-3 -4-5)
1	2	3	4	5	6
HS1	340500	37455	204300	75000	23745
HS2	523000	67990	287650	210000	-42640

Birinchi turdagi hayot sug'urtasi (HS1) bo'yicha test natijasi ijobiy bo'ldi. Ushbu summa umumiy daromadlar to'g'risidagi hisobotda sug'urta zahirasi o'sishi sifatida tan olinishi kerak. Ikkinchi turdagi sug'urta (HS2) bo'yicha test natijasi salbiy bo'ldi. Bu shuni anglatadiki, hayotni sug'urta qilish zahirasi miqdori sug'urtalovchining sug'urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarini qoplash uchun etarli. Bunday holda sug'urta zahirasi tuzatish kiritish talab etilmaydi.

<sup>18</sup> IFRS 4 Insurance Contracts. <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-4-insurance-contracts>

<sup>19</sup> Muallif ishlanmasi

Infliyatsiya darajasining yoki sugurta to'lovlari chastotasini oshishi, sug'urta mahsulotini past narxlash hodisalari ishlab topilmagan mukofot zahirasini sug'urtalovchi tomonidan sug'urta majburiyatlarini bajarishi uchun etarli bo'lmay qolishi ehtimolini oshiradi. Bunday hollarda, 4-son MHXS ga muvofiq sug'urtalovchi tugallanmagan risklar zahirasini (URR, unexpired risk reserve) shakllantirishi kerak. Shuningdek 4-son MHXS 15-19 moddalariga ko'ra har bir hisobot sanasida sug'urtalovchi olingan majburiyatlarni muvofiqligini tekshirish testi o'tkazishi va bu testlar natijasida URR ni shakllantirish yoki shakllantirmaslik bo'yicha qaror qabul qilishi kerak. Afsuski bu proceduralarni amalga oshirish milliy buxgalteriya tizimimizda ko'zda tutilmagan.

Bizning fikrimizcha, sodir bo'lgan, ammo xabar qilinmagan zararlar (IBNR, incurred but not reported) uchun zahirani hisoblash bilan bog'liq bo'lgan Nizomning bandlarini qayta ko'rib chiqish zarur. Nizomning 23-bandiga ko'ra, "... sodir bo'lgan, ammo xabar qilinmagan zararlar uchun zahira har bir sug'urta turi bo'yicha sug'urtalovchining ushbu turdagi sug'urta to'lovlarini amalga oshirish bo'yicha to'plangan statistik ma'lumotlarini hisobga olgan holda alohida hisoblanadi. ... Shu bilan birga, umumiy sug'urta (qayta sug'urta)ga nisbatan bu summa hech qanday holatda hisobot sanasidan oldingi o'n ikki oylik davr uchun umumiy sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomalari bo'yicha bazaviy sug'urta mukofoti miqdorining 10 foizidan kam bo'lmasligi kerak".

Ushbu tarifda IBNRni hisoblash uchun qaysi statistic ma'lumatlardan foydalanishi, qaysi statistik usul asosida hisob-kitoblar amalga oshirilishi ko'rsatilmagan. Yagona talab shundaki, portfel uchun IBNR miqdori hisobot sanasidan 12 oy oldingi davr uchun shartnomalar bo'yicha bazaviy sug'urta mukofotining 10% dan kam bo'lmasligi kerak. Ushbu shartdan foydalangan holda sug'urtalovchi o'zining sug'urta faoliyatining moliyaviy natijasini sun'iy ravishda kamaytirishi yoki oshirishi mumkin.

Dissertatsiya ishining **"Sugurtalovchining to'lov qobiliyati bahosi"** deb nomlangan beshinchi bobi hayot sug'urtasida to'lov qobiliyati va kapitalning etarligi modellarining qiyosiy tahliliga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorida aktuar funksiyasi va tayinlangan aktuariylar institutining rivojlanishiga bag'ishlangan.

2008-2009 yillardagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi to'lov qobiliyatini baholash va nazorat qilish tizimiga tavakkalchiliklar bahosiga asoslangan yondashuvni qo'llash zarurligini ko'rsatdi. Kapital bozorlarida qimmatli qog'ozlar bo'yicha foiz stavkalarining pasayishi bir qator hayotni sug'urtalovchi kompaniyalarning to'lov qobiliyatining pasayishiga olib keldi. Bularning barchasi hisobot berish qoidalarini o'zgartirishga va kompaniyalarning to'lov qobiliyatini nazorat qiluvchi organ tomonidan nazoratni kuchaytirishga olib keldi. Inqiroz, Solvency I bo'yicha to'lov qobiliyatini nazorat qilish tizimining zaifligini ko'rsatdi. Ushbu risklarning ta'siri kapitalga nisbatan talablarida hisobga olinmagan. Bundan

tashqari, Solvency I tizimida turli Evropa Ittifoqi mamlakatlaridagi aktivlar va/yoki majburiyatlar qiymatini baholashda turli metodologiyalardan foydalanilgan.

6-jadval

**Solvency I va Solvency II tizimlarining asosiy xususiyatlari<sup>20</sup>**

	<b>Solvency I</b>	<b>Solvency II</b>
Asosiy g'oya	Qoidalarga asoslangan	Prinsiplarga asoslangan
Hisoblash metodologiyasi	Oddiy formula	Murakkab standart formula va ichki modellarni qo'llash
Aktiv va passivlar qiymati	Balans	Bozor
Hisobga olingan risklar	Anderrayting riski	Anderrayting riski, Bozor riski, Kontragent riski, Operatsion risk
Aktivlar va passivlarning qiymati	Oddiy miqdoriy yondashuv	Miqdoriy va sifatiy yondashuv

Bir qator sabablarga ko'ra, Evropa Ittifoqi davlatlarining sug'urta kompaniyalarining to'lov qobiliyatini baholash, monitoring qilish va tartibga solish tajribasi biz uchun katta qiziqish uyg'otadi:

- Evropa Ittifoqi mamlakatlarida sug'urta kompaniyalarining to'lov qobiliyati muammolariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqot ishlarining mavjudligi;
- O'zbekiston Respublikasining sug'urta zahiralari shakllantirish va to'lov qobiliyatini nazorat qilish to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlari Solvency I standartiga asoslangan;
- O'zbekiston Respublikasi sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"da milliy sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyatini baholash va monitoring qilish usullarini "Solvency II" standartlariga muvofiqlashtirish nazarda tutilgan<sup>21</sup>.

To'lov qobiliyati va kapitalning etarligini baholash va monitoring qilish muammolariga bag'ishlangan tahliliy ishlarda sug'urta kompaniyalarining to'lovga layoqatsizligining asosiy sabablari sifatida kam zahira va investitsion risklar ko'pincha tilga olinadi.

Hayotni sug'urtalovchi kompaniyalarning to'lov qobiliyatini baholash va monitoring qilishning amaldagi tizimi bir qator kamchiliklarga ega, va bizning fikrimizcha ulardan eng muhimlari quyidagilar hisoblanadi:

- ***sug'urtalovchining majburiyatlarini baholash bilan bog'lik xatoliklar.*** Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralari to'g'risidagi Nizom talablariga muvofiq

<sup>20</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2024 yildagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-108-son Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-6824178>

sug'urta mukofotlari zahirasini hisoblash sug'urtalangan shaxsning yoshi va jinsi hisobga olinmagan holda amalga oshiriladi<sup>22</sup>. Aytaylik, 20 va 60 yoshdagi sug'urtalanuvchilar portfel uchun katta farqga ega risklar tashkil qilsalarda, ular uchun bir xil hajmdagi zahira shakllantiriladi. Nizom sug'urtalovchining sug'urta qildiruvchi oldidagi majburiyatlarining eng yaxshi bahosi bo'lgan matematik zahiralarni shakllantirishni nazarda tutmaydi. Nizomda, shuningdek, hayotni sug'urtalashda sug'urta zahiralarni hisoblashda texnik diskont stavkalri bo'yicha talablab yo'q va bu xalqaro amaliyotga xalqaro aktuar amaliyotga zid<sup>23</sup>;

• ***Aktivlar bahosining noto'g'ri talqini.*** Aktivlar balans ma'lumotlari asosida baholanadi va ularning bozor bahosi qiymatini aks ettirmaydi.

***Risklar va ularning miqdor va sifat xarakteristikalarining yetarlicha tan olinmasligi.*** Amaldagi to'lov qobiliyati rejimi hayotni sug'urtalovchi kompaniya duch keladigan real risklarga moslashtirilmagan va risklarni yanada samarali boshqarish uchun hech qanday rag'batlantirmaydi. Misol uchun, investitsiya portfeli 100% bank depozitlaridan iborat bo'lgan A kompaniyasi va investitsiya portfeli 50% aktsiyalardan va 50% bank depozitlaridan iborat bo'lgan B kompaniyasi kapitallariga bir xil talab qo'yiladi.

Sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyatini baholash va monitoring qilishning amaldagi tizimini takomillashtirish uchun sug'urtalovchilarning kapitallari etarligiga va tarkibiga bo'lgan talablar risklarni aniq belgilashga asoslanishi kerak. Kapitalga qo'yiladigan talablar sug'urta kompaniyasi duchor bo'lgan barcha risklarni etarli darajada aks ettirishi kerak.

Ritsklarning aniq ta'rifi va tavsifiga ega bo'lishi juda muhimdir. Biroq, biz duch keladigan yana bir muammo bu sug'urtalovchining to'lov qobiliyati va kapitalining etarligini baholashda foydalaniladigan risk modeli va parametrlarini tanlashdir. Model to'lov qobiliyatining eng yaxshi bahosini beradimi? Ushbu yondashuv bozorning xilma-xilligini hisobga oladimi va hayotni sug'urtalash kompaniyasi uchun eng yaxshi to'lov qobiliyati va kapital talablarini aniqlaydimi? O'zbekiston Respublikasi sharoitida metodikalarni amalga oshirish qanday ishlashi mumkin?

To'lov qobiliyatini baholash metodologiyasiga turlicha yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish natijasida shunday xulosaga keldikki, O'zbekiston Respublikasi hayot sug'urtasi milliy bozori sharoitida to'lov qobiliyatini prudensial baholash uchun senariylarga asoslangan dinamik modellar qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Senariylar oddiy stress testlardan farqli o'laroq sug'urtalovchining to'lov qobiliyatini baholashning ko'p qirrali vositasi hisoblanadi. Tanlangan senariylarning

<sup>22</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 15.12.2008 yilda ro'yxatdan o'tgan, №1882 sonli "Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralari to'g'risidagi tasdiqlash haqida" Buyrug'i . <https://lex.uz/ru/docs/-1416862>

<sup>23</sup> [https://www.actuaries.org/iaa/IAA/Sections/IAALS\\_Life\\_Insurance\\_new/IAA/Sections/IAALS\\_new/IAA\\_Life\\_Section.aspx?hkey=13e2820c-7b2a-4a2b-81bb-cf067c0f7288](https://www.actuaries.org/iaa/IAA/Sections/IAALS_Life_Insurance_new/IAA/Sections/IAALS_new/IAA_Life_Section.aspx?hkey=13e2820c-7b2a-4a2b-81bb-cf067c0f7288)

ehtimoli aktuariylar tomonidan aniqlanishi va regulyator bilan kelishilgan bo'lishi kerak.

Senariy asosidagi modellardan foydalanish foydasiga yana bir dalil shundaki, ular murakkab matematik-statistik va moliyaviy-iqtisodiy hisob-kitoblarni va yuqori darajada rivojlangan va moslashuvchan IT tizimidan foydalanishni talab qilmaydi. Sug'urta bozorida yuqori malakali kadrlar yetishmasligini hisobga olsak, bu juda muhim.

Bizning fikrimizcha, to'lov qobiliyati va kapitalning etarliligi modellaridan foydalanish sug'urta sohasini nazorat qilishning ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining jahon savdo tashkilotiga (JSD) kirishi sharoitida hayotni sug'urtalash milliy kompaniyalari xorijiy sug'urtachilarga nisbatan raqobatdosh ustunlikka ega bo'lishlari uchun ular tartibga soluvchi talablarga javob beradigan va to'lov qobiliyatini baholashda samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan ichki modelni ishlab chiqishlari kerak. Ushbu chora-tadbirlar bozor shaffofligi va hayotni sug'urtalovchi kompaniyalarning investorlar uchun jozibadorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Xalqaro sug'urta nazoratchilari uyushmasi (IAIS) tavsiyasiga ko'ra, nazoratchi sug'urtalovchilardan risklarni baholash, texnik zahiralarni va sug'urta xizmatlarini narxlarini zararlilik boyicha hisoblash, sug'urtalovchining to'lov qobiliyatini va kapitalining yetarliligini baholash, qayta sug'urtalash mexanizmi va va me'yoriy talablarga muvofiqlik bo'yicha maslahatlar berish kabi vazifalarni o' ichiga oladigan aktuar funksiya mavjudligini talab etishi kerak<sup>24</sup>.

Aktuar rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, aktuar funksiyadan foydalanish kompaniyalarda biznes-jarayonlarni qurishga qarab quyidagi variantlarda amalga oshiriladi<sup>25</sup>:

- hisob-kitoblar uchinchi shaxs tomonidan amalga oshiriladi, aktuar funksiya esa hisob-kitoblar natijalarini tahlil qiladi va direktorlar kengashiga aktuar hisobotini taqdim etadi;
- aktuar funksiya mustaqil ravishda tahlil va hisob-kitoblarni amalga oshiradi hamda bajarilgan ishlar natijalari to'g'risida Direktorlar kengashiga hisobot beradi;
- yuqoridagi variantlarning kombinatsiyasi, masalan, tahlil va asosiy hisob-kitoblar anderrayerlar, moliyachilar va zararlarni to'g'rilash bo'limi xodimlaridan

---

<sup>24</sup> Insurance Core Principles and Common Framework for the Supervision of Internationally Active Insurance Groups <https://www.iaisweb.org/uploads/2022/01/191115-IAIS-ICPs-and-ComFrame-adopted-in-November-2019.pdf> p.91

<sup>25</sup> Role of the Actuarial Function under Solvency II. GIRO working party. <https://www.actuaries.org.uk/practice-areas/general-insurance/disbanded-research-working-parties/actuarial-function>

iborat guruh tomonidan amalga oshiriladi va hisob natijalari aktuar funksiya bilan baholanadi.

Solvency II va 17-son MHXS standartlarini joriy etilishi aktuariylar uchun yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Biroq, bu vazifalar bugunki kunda aktuariylar o'zlarining kundalik ishlarida foydalanadigan ko'nikmalarga asoslanadi. Ushbu talablarni qondirishda aktuariylar ishtiroki aktuarlarning o'z mahorati va tajribasi orqali olib keladigan qiymatni aks ettiradi.

### **Xulosalar:**

Milliy va xalqaro hayot sug'urtasi bozorlarining hozirgi holati va rivojlanish tendentsiyalarini o'rganish, to'lov qobiliyatini baholash va nazorat qilish bo'yicha mahalliy va xalqaro amaliyotni qiyosiy tahlil qilish, rivojlangan mamlakatlarning aktuar funksiyani joriy etish tajribasini o'rganish natijasida hayotni sug'urta qilish bo'yicha kompaniyalar tomonidan quyidagi xulosalar, tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Hayot sug'urtasi, shu jumladan, pensiya sug'urtasini rivojlantirishni rag'batlantirish ichki jamg'armalarning ko'payishiga olib keladi va shu sababli iqtisodiy manfaatlardan tashqari, psixologik manfaatlarga ham ega. Buning sababi shundaki, mamlakat o'zining ichki jamg'armalarini yaratganda, u chet el investitsiyalariga kamroq bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti xalqaro xarakterga ega bo'lishiga qaramasdan, iqtisodiyotning strategik tarmoqlari (neft-gaz sanoati, energetika, foydali qazilmalar va boshqalar) loyihalarini moliyalashtirish uchun ichki investitsiyalarni, xususan, hayot sug'urtasi kompaniyalari investitsiya aktivlarini yo'naltirish zarur.

2. Jahon hayot sug'urtasi bozorida mukofotlar tushumi sur'atlari va jahon kapital bozorlaridagi bozor stavkalari bo'yicha 1980 – 2022 yillar statistikasi tahlili shuni ko'rsatadiki bu ikala ko'rsatkichlar o'rtasida korrelyatsion bog'liqlik mavjud (57%). Jahon sug'urta bozori rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa omillar - kapitalning etariligi bo'yicha tartibga soluvchi talablarning kuchaytirilishi, turli pay investitsiya fondlari kabi muqobil moliyaviy vositalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, postindustrial jamiyatlarda oilaviy institutning eroziyasi hisoblanadi.

3. O'zbekiston Respublikasida hayotni sug'urtalash bozorining rivojlanish sur'ati ancha past darajada saqlanib qolayotgan bir qator ob'ektiv va subyektiv omillar mavjud: aholining nafaqat sug'urta mexanizmiga, balki ularning hayoti va moddiy farovonligiga xavf soladigan risklarga munosabatining irratsional xarakterga egaligi; yetarli darajada bilim va ish tajribasiga ega mutaxassislarning etishmasligi; hayotni sug'urtalash dasturlarining past rentabelligi va odamlarning hayotni sug'urtalovchi kompaniyalarga ishonchsizligi; sug'urta iste'molchilari

tomonidan milliy valyuta barqarorligiga nisbatan noaniqlik; sug'urta qonunchiligining nomukammalligi.

4. O'zbekistonda hayotni sug'urtalash sohasi salohiyatini ochish bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi: investitsiyalarni sug'urtalash mahsulotlarini, shuningdek, birliklarga bog'liq sug'urtani qonunchilik asosida birlashtirish; hayotni sug'urtalashni moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va undan garov sifatida foydalanish imkoniyatini ta'minlash; hayotni sug'urtalovchilarga nodavlat pensiya tizimida ishtirok etishiga ruxsat berish; sug'urtalanuvchilarning aktivlari ustidan nazoratni kuchaytirish uchun ixtisoslashtirilgan depozitariydan majburiy foydalanish; hayot sug'urtasi turlari bo'yicha kafolat fondi tashkil etish; moliyaviy barqarorlikni tartibga solishni kuchaytirish; aholining sug'urta madaniyatini oshirishga qaratilgan ommaviy axborot vositalarida maxsus dasturlarni tashkil etish.

5. Ijtimoiy himoya tizimida hayotni sug'urtalovchi kompaniyalar muhim o'rin tutadi. Biroq, faqatgina xususiy hayot sug'urtasi hisobidan aholi ijtimoiy himoyasi tizimida mavjud kamchiliklarni bartaraf etib bo'lmaydi. Bundan tashqari, ayrim risklar xususiy sektor tomonidan sug'urta qilinmaydi, bu esa davlat sektorining ishtirokini talab etadi.

6. Yosh va jins kesimida hisoblangan o'lim ko'rsatkichlari va o'rtacha umr ko'rish tendentsiyalarini tahlil qilish natijalari aholining qarish jarayonining kuchayganligini tasdiqlaydi. O'lim ko'rsatkichlarining pasayishi va buning natijasida umr ko'rish davomiyligining oshishi sug'urtalovchilarning sug'urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarning joriy qiymatiga va hayotni sug'urtalash kompaniyalari va pensiya jamg'armalarining sug'urta zaxiralariغا bevosita ta'sir qiladi. Deterministik yondashuvdan farqli o'laroq, stokastik modellar mumkin bo'lgan demografik senariylarning ishonchliligi ehtimolini baholashga imkon beradi. Dissertatsiya ishi doirasida tuzilgan jins va yosh kesimidagi o'lim ko'rsatkichlarining stoxastik prognozlar va hayotning dinamik jadvallari sug'urta zaxiralari hisob-kitoblarning bahosi anqligi darajasini oshiradi va hayotni sug'urtalovchi kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

7. Matematik zahiralalar hayot su'gurtasi kompaniyalarining sug'urtachilar oldidagi moliyaviy majburiyatlarining eng yaxshi bahosidir. Biroq O'zbekiston Respublikasining sug'urta qonunchiligida matematik zaxiralarni shakllantirish nazarda tutilmagan. Hayotni sug'urtalash kompaniyalari portfelining tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda sug'urta shartnomalarini muddatidan oldin bekor qilishning ancha yuqori ulushi mavjud. Shu sababli matematik zaxiralarni shakllantirishda retrospektiv usuldan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu usulning taklif etilishi bozor diskont stavkasining o'zgaruvchanligi tufayli kelajakdagi pul oqimlarini prognozlash muammolari bilan ham bog'liq.

8. O'zbekiston Respublikasi hayot sug'urtasi milliy bozori sharoitida to'lov qobiliyatini prudensial baholash uchun to'lov qobiliyatini baholashning dinamik modellaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Senariylarga asoslangan modellar ma'lum risk parametrlarining kompaniyaning moliyaviy barqarorligiga ta'sirini tahlil qilish imkonini beradi. Kapitalga nisbatan talablar sug'urta kompaniyasining moliyaviy modeliga qo'llaniladigan senariylar to'plamining eng yomon natijalari asosida hisoblanadi. Senariylar uchun muayyan mezonlarni belgilash mumkin. Mezonlarni belgilashda quyidagi asosiy jihatlarni hisobga olish kerak: senariylar to'plami kompaniya duch keladigan barcha risklarni qamrab olishi kerak; senariylar to'plami muntazam ravishda yangilanib turishi kerak; senariylar soni cheklangan bo'lishi kerak; senariylar majmuasi risklar kumulyatsiyasi va va o'zaro bog'liqligini (korrelyatsiyani) hisobga olishi kerak; subyektivlikka yo'l qo'ymaslik uchun senariylarni tuzishda tarixiy statistika va tendentsiyalarni hisobga olish kerak.

9. O'zbekiston hayot sug'urtasi bozorining o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda sug'urtalovchilar to'lov qobiliyatini baholavchi senariylarni quyidagi tartibda qurish maqsadga muvofiq: o'lim darajasining keskin oshishiga olib keladigan pandemiya senariysi; aholining qarishi senariysi (tug'ilishning pasayishi, o'rtacha umr ko'rish davomiyligi); nogironlik senariysi (nogironlik darajasining oshishi); bozor riskning keskin oshishiga va kontragentlarning bankrotligiga olib kelgan moliyaviy inqiroz senariysi;

Senariy asosidagi modellardan foydalanish foydasiga jiddiy dalil shundan iboratki, ular murakkab matematik-statistik va moliyaviy-iqtisodiy hisob-kitoblarni va yuqori darajada rivojlangan va moslashuvchan IT tizimidan foydalanishni talab qilmaydi. Sug'urta bozorida yuqori malakali kadrlar yetishmasligini hisobga olsak, bu juda muhim.

10. Milliy hayot sug'urtasi kompaniyalari O'zbekiston Respublikasining Jahon Savdo Tashkilotiga kirishi sharoitida chet el sug'urtalovchilariga nisbatan raqobat ustunligiga ega bo'lishlari uchun to'lov qobiliyati va kapitalning etarlicligi bo'yicha ularga ustunlik beruvchi ichki modelni ishlab chiqishi kerak. Ushbu chora-tadbirlar bozor shaffofligi va hayotni sug'urtalovchi kompaniyalarning investorlar uchun jozibadorligini oshirishga ham xizmat qilishi kerak.

Xalqaro sug'urta nazoratchilari uyushmasi (IAIS) tavsiyasiga ko'ra, nazoratchi sug'urtalovchilardan risklarni baholashga qodir bo'lgan samarali aktuar funksiyaga ega bo'lishini talab qilishi va bu funktsiya texnik zaxiralar, sug'urta mahsulotlari narxi, kapitalning yetarlicligi, qayta sug'urtalash operatsiyalari hamda qonunchilik va me'yoriy talablarga muvofiqligi bo'yicha maslahatlar berishi kerak. Solvency II to'lov qobiliyatini baholash rejimi va 17 IFRS joriy etilishi aktuariylar uchun yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu masalalarga aktuariylarning jalb etilishi sug'urta bozorining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
№DSC 03/30.12.2019.I.01.11 ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ  
УЗБЕКИСТАНА**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО  
УЛУГБЕКА**

**ШАМСУДДИНОВ БАХОДИР РАХИМОВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ОСНОВ  
СТРАХОВАНИЯ ЖИЗНИ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**08.00.07 –Финансы, денежное обращение и кредит**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации на соискание ученой  
степени доктора наук (DSc) по экономическим наукам**

**ТАШКЕНТ -2024**

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан по номером B2023.4.DSc/1qt598.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета ([www.niu.uz](http://www.niu.uz)) информационно-образовательном портале ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)).

Научный консультант:

**Алимов Рустам Сидикович**  
доктор экономических наук, профессор

Расмий оponentлар:

**Тухтаев Нуридун**  
академик, доктор экономических наук,  
профессор

**Кудринцев Андрей Алексеевич**  
доктор экономических наук, профессор

**Ишонов Тохир Каримович**  
доктор экономических наук, профессор

Ётакти ташкилот:

Ташкентский государственный  
экономический университет

Защита диссертации состоится 28 декабря 2024 года в 10.00 часов на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней DSc.03/30.12.2019.1.01.11 при Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека по адресу: 100000, г. Ташкент, ул. Университетская, д.4, Тел.: (99871) 246-02-24, факс: (99871) 246-02-24, e-mail: [devonxopaq@niu.uz](mailto:devonxopaq@niu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (зарегистрировано под номером №178). Адрес: 100000, г. Ташкент, ул. Университетская, д.4, Тел.: (99871) 246-02-24, факс: (99871) 246-02-24, e-mail: [kitubxopaq@niu.uz](mailto:kitubxopaq@niu.uz).

Автореферат диссертации разослан 17 декабря 2024 года.  
(Протокол реестра №43 от 17 декабря 2024 года).

  
**Х.П. Абулкасимов**  
Президент Научного Совета по  
присуждению ученых степеней,  
доктор экономических наук,  
профессор

**К.К. Мамбетжонов**  
Заместитель Секретаря Научного Совета по  
присуждению ученых степеней,  
доктор экономических наук,  
профессор

**А.В. Вахабов**  
Президент Научного семинара при  
Научном Совете по присуждению  
ученых степеней, доктор  
экономических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В условиях старения населения, высоких технологических достижений и изменения климата, который грозит человечеству возникновением новых заболеваний и ростом смертности, отрасль страхования жизни сталкивается со многими проблемами, которые требуют ведение научных исследований. Согласно данным Международной ассоциации страховых надзорных органов (IAIS), «...в 2024 году валовая страховая премия на мировом рынке страхования будет иметь тенденцию роста из-за текущей геополитической нестабильности. Ожидается, что в 2024 году страховые премии вырастут на 3,3% и составят 8,1 триллиона долларов. В 2024 году рост премий на основных рынках прогнозируется на уровне 6,3% в Китае, 1,7% в США, 2,8% в Западной Европе и 5,6% в развивающихся странах».<sup>26</sup> Поэтому представляется крайне актуальным совершенствование методологических основ страхования жизни в условиях кардинальных экономических и геополитических изменений в мире.

В научных исследованиях, посвящённых проблемам страхования жизни, вопросы совершенствования методологических основ страхования жизни занимают весомое место. Действительно, происходящие в мире демографические, климатические, экономические и геополитические изменения требуют пересмотра существующих методологических основ страхования жизни, так как в результате вышеназванных факторов происходит кардинальные изменения в характере страхуемых рисков. По этой причине ведение исследований по оценке тяжести и частотности страхуемых рисков, эконометрическое моделирование влияния вышеназванных факторов на финансовую устойчивость компаний страхования жизни, внедрение актуарных методов и актуарной функции в страховые бизнес-процессы с целью повышения эффективности страховой деятельности являются перспективными направлениями научно-практических исследований в отрасли страхования жизни.

Наблюдается значительное расширение спектра услуг, предоставляемых на страховом рынке Республики Узбекистан. Масштабные преобразования в социальной, политической и экономической сферах жизни общества оказывают большое влияние на качественные и количественные параметры развития национального рынка страхования. "За последние пять лет объем страховых премий в республике вырос почти в 6 раз, этот показатель значительно превышает показатель развития других финансовых отраслей. Однако, несмотря на это, доля страховых услуг в ВВП республики не превышает 0,8 процента»<sup>27</sup>. Этот показатель значительно меньше по сравнению с показателем в развитых странах. Именно поэтому вопросы «...обеспечения занятости населения трудом, приносящим доход,

---

<sup>26</sup> <https://www.capgemini.com/industries/insurance/life-annuities-benefits/>

<sup>27</sup> <https://yuz.uz/news/ozbekiston-sugurta-bozori-qanday-rivojlanmoqda>

совершенствование системы социального страхования»<sup>28</sup> определены как одним из приоритетных направлений в Стратегии “Узбекистан - 2030”. Сложившаяся социально-экономическая ситуация в нашей стране требует предоставления приоритет реформам, направленным на совершенствование организационно-экономических основ развития национального рынка страхования.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, указанных в Указах Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года №УП -158 “ О стратегии “Узбекистан – 2030”, от 28 января 2022 года № УП-60 “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 1 марта 2024 года № ПП-108 «О комплексных мерах по дальнейшему развитию рынка страховых услуг», от 23 октября 2021 года №ПП 5265 «О дополнительных мерах по цифровизации страхового рынка и развитию сферы страхования жизни», от 2 августа 2019 года №ПП-4412 «О мерах по реформированию и обеспечению ускоренного развития страхового рынка Республики Узбекистан», от 24.02.2020 г. № ПП-4611 «О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчётности», от 02.09.2023 г. № ПП-291 «О дополнительных мерах по развитию рынка капитала», а также в других нормативных документах данной сферы.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертационная работа выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий в республике “Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики”.

**Обзор зарубежных исследований по теме диссертации.**<sup>29</sup> Научные исследования по проблемам страхования жизни в условиях изменения

---

<sup>28</sup> Указ Президента Республики Узбекистан, от 11.09.2023 г. № УП-158 «О стратегии «Узбекистан – 2030». <https://lex.uz/docs/6600404>

<sup>29</sup> Insurance Core Principles and Common Framework for the Supervision of Internationally Active Insurance Groups. <https://www.iaisweb.org/uploads/2022/01/191115-IAIS-ICPs-and-ComFrame-adopted-in-November-2019.pdf>; IAA Risk Book Actuarial Function. <https://www.actuaries.org/~IAARiskBookActuarialFunction2023-03.pdf>; Navigating Global Life and Health Insurance Demand Trends. <https://www.soa.org/resources/research-reports/2024/navigating-global-insurance-demands>; R Programming for Actuarial Science. <https://www.harvard.com/book/9781119754978>; Life Insurance in the Information Age. <https://www.chicagobooth.edu/review/life-insurance-information-age>; Economic, Demographic, and Institutional Determinants of Life Insurance Consumption across Countries. <https://documents1.worldbank.org/~773990JRN020030ts0of0Life0Insurance.pdf> ; Life, Disability, and Workers' Compensation Insurance. <https://hr.mit.edu/benefits/life>; Basic & Supplemental Life Insurance. <https://cardinalatwork.stanford.edu/~basic-supplemental-life-insurance>; OECD Insurance Statistics. [https://www.oecd-ilibrary.org/finance-and-investment/data/oecd-insurance-statistics\\_ins-data-en](https://www.oecd-ilibrary.org/finance-and-investment/data/oecd-insurance-statistics_ins-data-en) ; Catastrophe insurance programs for public assets - operational framework. <https://www.preventionweb.net/publication/catastrophe-insurance-programs-public-assets-operational-framework>; An insurance paradigm for improving power system resilience via distributed investment. <https://ora.ox.ac.uk/objects/uuid:9f5184fc-247c-4fab-ae19-8c0275337a74>; Рынок труда и система обязательного пенсионного страхования: современные тренды и долгосрочные риски. <https://www.iep.ru/ru/monitoring/rynok-truda-i-sistema-obyazatel'nogo-pensionnogo-strakhovaniya->

